



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	238
Xakimov Uchkun Xamitovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	242
Mardanova Ra'no Isakovna	
XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL	246
Yakubov Temur G'anibekovich	
RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODELI	250
Ziyodullayev Qahramon	
"MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI" VA "YASHIL TUROPERATORLAR" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI	254
Toshev Akmal Salimovich	
RISK-MENEJMENT VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	261
Madaminov Bekzod Allayarovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT: BAHOLASH METODOLOGIYASI, DINAMIKASI VA QISQARTIRISH ISTIQBOLLARI (1996 – 2026-YILLAR TAHLILI)	266
Djumanova Rano Fayzullayevna	
OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA MAJMUALI DIAGNOSTIK MODELNING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	272
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	278
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	282
Nigora Nurmatova	
BANK SEKTORINING INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISHDAGI STRATEGIK O'RNI	287
Abdumavlonov Abdumutal Abdumajid o'g'li	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	291
Allabergenova Nilufar Shermetovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA TA'MINOTLI YIRIK KREDITLAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQRISH ORQALI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI	298
Ahmedov Akbarali Sultonmurodovich	
"MINTAQA SANOATI SALOHİYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI"	306
Abdinazarov Xusan Shaymanovich	
BUDJET TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MAJBURIYATLAR: MAZMUNI, TURLARI VA TARKIBI	309
Jabbarova Charos Aminovna	
ATROF-MUHIT VA EKOLOGIK IQTISODIYOT: TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	316
Alikulov Samar Abdirashidovich	



O'ZBEKISTON KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Allabergenova Nilufar Shermetovna

Urganch Ranch texnologiya universiteti

Iqtisodiyot kafedrası stajyor o'qituvchisi

E-mail: nallabergenova602@gmail.com

ORCID: 0009 0002 5664 3665

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda korxonalarda uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Unda investitsiyalarni joriy va uzoq muddatli aktivlar sifatida to'g'ri tasniflash, ularni baholash (xarid qiymati, bozor qiymati, amortizatsiyalangan qiymat) hamda moliyaviy hisobotlarda ochiqdash (disclosure) bilan bog'liq amaliy muammolar va ushbu jarayonlarning moliyaviy hisobotlarning ishonchligi hamda taqqoslanuvchanligiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, amaldagi normativ talablar va metodik yondashuvlar uyg'unligi asosida korxonalarining hisob siyosatini standartlashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar, buxgalteriya hisobi, tasniflash, baholash, amortizatsiyalangan qiymat, bozor qiymati, disclosure (ochiqdash), moliyaviy hisobot taqqoslanuvchanligi.

Abstract. This article examines the issues of improving the accounting treatment of long-term financial investments in enterprises in Uzbekistan. It analyzes practical problems related to the proper classification of investments as current or long-term assets, their measurement (at acquisition cost, market value, and amortized cost), as well as disclosure in financial statements, and the impact of these processes on the reliability and comparability of financial reporting. Based on the harmonization of regulatory requirements and methodological approaches, proposals aimed at standardizing corporate accounting policies are developed.

Key words: long-term financial investments, accounting, classification, measurement, amortized cost, market value, disclosure, comparability of financial statements.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы совершенствования отражения долгосрочных финансовых инвестиций в бухгалтерском учёте предприятий Республики Узбекистан. Анализируются практические проблемы классификации инвестиций как текущих и долгосрочных активов, их оценки (по первоначальной стоимости, рыночной стоимости и амортизированной стоимости), а также раскрытия информации (disclosure) в финансовой отчётности и влияние данных процессов на её достоверность и сопоставимость. На основе согласования нормативных требований и методических подходов разработаны предложения, направленные на стандартизацию учётной политики предприятий.

Ключевые слова: долгосрочные финансовые инвестиции, бухгалтерский учёт, классификация, оценка, амортизированная стоимость, рыночная стоимость, раскрытие информации (disclosure), сопоставимость финансовой отчётности.

KIRISH

Bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan sharoitda korxonalar moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va kapitalni ko'paytirish maqsadida bo'sh pul oqimlarini moliyaviy instrumentlar orqali joylashtirish amaliyotidan tobora kengroq foydalanmoqda. Ushbu instrumentlar orasida uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar alohida ahamiyat kasb etib, xalqaro yondashuvga ko'ra, ular korxona tomonidan bir yildan ortiq muddat ushlab turilishi rejalashtirilgan aktivlar sifatida talqin qilinadi hamda balansning aktivlar qismida "Uzoq muddatli investitsiyalar" bo'limida alohida hisobvaraqlarda aks ettirilishi nazarda tutiladi [3].

O'zbekiston amaliyotida ham moliyaviy investitsiyalar korxona aktivlari tarkibida moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi, hisobot shakllari, ularni taqdim etish muddatlari hamda tarkibiy mazmuni esa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan. Xususan, 2024-yil 4-noyabrda ro'yxatdan o'tgan 3567-sonli hujjat bilan moliyaviy



hisobotlarni taqdim etish muddatlari, ularning tarkibi va mazmuniga doir Nizom tasdiqlangani, shuningdek, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot (balans) va boshqa asosiy hisobot shakllarining ilovalar ko'rinishida belgilab berilgani korxonalarda aktivlarni, jumladan moliyaviy investitsiyalarni to'g'ri tasniflash va haqqoniy aks ettirish zaruratini yanada kuchaytiradi [2].

Ilmiy manbalarda uzoq muddatli aktivlar, jumladan moliyaviy qo'yilmalar, odatda 12 oydan ortiq muddat davomida iqtisodiy naf keltirishi va korxona tomonidan nazorat qilinishi mumkin bo'lgan resurslar sifatida tavsiflanadi. Ushbu yondashuv uzoq muddatli aktivlarni korxona resurslari tizimida strategik ahamiyatga ega kategoriya sifatida baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, monografik tadqiqotlarda uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar bo'yicha asosiy motiv sifatida foiz yoki dividend ko'rinishidagi daromad olish maqsadi ko'rsatiladi hamda moliyaviy investitsiyalar, asosan, qarzli va ulushli qimmatli qog'ozlar orqali amalga oshirilishi qayd etiladi [1].

Amaliyotda investitsiyalarni tasniflash (joriy yoki uzoq muddatli aktiv sifatida ajratish), baholash (xarid qiymati, bozor qiymati, amortizatsiyalangan qiymat yondashuvlari) hamda moliyaviy hisobotlarda ochiqlash (disclosure) bosqichlarida ayrim murakkabliklar kuzatiladi [1].

Shuningdek, investitsiyalarni qayta baholash jarayonida "portfel yondashuvi" yoki "xarid qiymati va bozor qiymatining eng kami" kabi mezonlarning qo'llanilishi metodik aniqlik va yagona yondashuvni talab etadi [1].

Demak, O'zbekiston korxonalarida uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobini takomillashtirish masalasi, bir tomondan, xalqaro terminologiya va tasnif mezonlarini, ikkinchi tomondan esa milliy normativ-huquqiy talablar hamda moliyaviy hisobot shakllarini o'zaro uyg'unlashtirish orqali moliyaviy hisobotlarning ishonchiligi va taqqoslanuvchanligini oshirish nuqtayi nazaridan dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar mavzusiga oid manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, chet el adabiyotlarida uzoq muddatli investitsiyalar odatda korxona balansida bir yildan ortiq muddatga ushlab turilishi rejalashtirilgan va kelgusida daromad (foiz yoki dividend) keltirishi kutiladigan aktivlar sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, ularni moliyaviy hisobotlarda to'g'ri va izchil taqdim etish korxonaning moliyaviy holatini baholashda muhim axborot manbai ekani alohida ta'kidlanadi [3].

O'zbekistonlik mualliflar mazkur masalani, asosan, amaliy buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan yoritib, investitsiyalar bo'yicha xatoliklar ko'proq tasniflash (joriy yoki uzoq muddatli), baholash, qayta baholash hamda moliyaviy hisobot izohlarida ochiqlash bosqichlarida yuzaga kelishini qayd etadilar. Jumladan, I.N. Ismanov investitsiyalarni joriy yoki uzoq muddatli aktiv sifatida ajratishda muomalada bo'lish muddati mezonining hal qiluvchi ahamiyatga egaligini ko'rsatadi hamda baholash va qayta baholash jarayonlarida amaliyotda turlicha yondashuvlar mavjudligi sababli moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining taqqoslanuvchanligi pasayishini asoslab beradi [1].

O'zbekiston amaliyotida uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobini yuritish masalalariga bevosita bag'ishlangan ishlardan biri Saidjamol Mahmudovning 2011-yildagi tadqiqotidir. Unda moliyaviy investitsiyalarni qisqa muddatli (1 yildan kam) va uzoq muddatli (1 yildan ortiq) turlarga ajratish, shuningdek, ularni tegishli hisob schyotlari bo'yicha yuritish mexanizmlari (jumladan, uzoq muddatli investitsiyalar uchun 0610 va boshqa schyotlar) yoritilgan. Muallif analitik hisobni investitsiya obyektlari kesimida tashkil etish zarurligini ham asoslab beradi [5].

Normativ-huquqiy tartibga solish masalalariga to'xtalar ekan, B. Khasanboeva (2025) O'zbekistonda moliyaviy investitsiyalar hisobi bo'yicha amalda bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ularning qo'llanish amaliyotini tahlil qiladi. Ushbu yondashuv mazkur tadqiqot doirasida moliyaviy investitsiyalar hisobiga ta'sir etuvchi huquqiy va institutsional omillarni yoritish uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola aralash tadqiqot dizayniga asoslangan holda ishlab chiqildi va uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobidagi muammolarni "hisob zanjiri" mantiqida (tan olish – tasniflash – baholash – qayta baholash – hisobotda ochiqlash) tahlil qilishga yo'naltirildi. Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar majmuasi quyidagi tartibda shakllantirildi.

Birinchidan, normativ-muvofiqlik tahlili orqali amaldagi me'yoriy talablar bilan korxonalarning hisob siyosati (tasniflash mezonlari, baholash bazasi, qayta baholash qoidalari hamda disclosure talablari) o'rtasidagi moslik va nomuvofiqliklar aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, kontent-tahlil usuli yordamida ilmiy va metodik manbalarda uchraydigan asosiy mezonlar — muddati bo'yicha ajratish, baholash bazalarining qo'llanishi, qayta baholashda portfel yoki guruh yondashuvining



tanlanishi hamda ochiqlash elementlari — kodlandi va “muammo – sabab – oqibat – yechim” mantiqiy zanjiri asosida tizimlashtirildi.

Uchinchidan, taqqoslash-metodik tahlil orqali turli hisob yondashuvlarining moliyaviy hisobotga ta'siri, jumladan likvidlik ko'rsatkichlari, moliyaviy natijalarni talqin qilish hamda hisobotlarning taqqoslanuvchanligi baholandi va ushbu tahlil asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

To'rtinchidan, statistik qismda deskriptiv tahlil qo'llanilib, 2016–2024-yillar bo'yicha umumiy dinamik tendensiyalar hamda 2024-yildagi hududiy tafovutlar yoritildi. Ushbu natijalar hisob siyosatini standartlashtirish zaruratini empirik jihatdan asoslashga xizmat qildi.


Beshinchidan, tadqiqot natijalarining ishonchligini oshirish maqsadida triangulyatsiya prinsipi qo'llanildi, ya'ni har bir asosiy tezis kamida ikki xil manba — metodik va normativ yoki metodik va statistik dalillar — orqali tasdiqlandi.

Tadqiqot yakunida amaliy natija sifatida korxonalar tomonidan qo'llanishi mumkin bo'lgan hisob siyosati paketi shakllantirildi. Mazkur paket tasniflash algoritmi, baholash modeli, qayta baholash qoidalari hamda o'zbek tilida ishlab chiqilgan minimal disclosure to'plamini o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobida yagona metodik asosni ta'minlash hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchligini va taqqoslanuvchanligini oshirishga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar korxonaning bo'sh pul resurslarini kelgusida daromad (foiz yoki dividend) olish maqsadida joylashtirish natijasida shakllanadigan aktivlar hisoblanadi. Amaliyotda bu holat dividend va foizlarning korxona daromadi sifatida tan olinishi orqali namoyon bo'ladi [1].

Shu bois mazkur obyekt bo'yicha buxgalteriya hisobining sifati moliyaviy hisobotlarning ishonchligi hamda taqqoslanuvchanligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Metodik xatoliklar, odatda, investitsiyalarni hisobda aks ettirishning ketma-ket jarayonida — tan olishdan boshlab tasniflash, baholash, qayta baholash va hisobotlarda ochiqlashgacha bo'lgan bosqichlarda to'planadi (1-rasm). 1-rasmda keltirilgan “hisob zanjiri” mantiqi shuni anglatadiki, tasniflashdagi xatolik keyingi baholash va qayta baholash jarayonlarining noto'g'ri bazada amalga oshirilishiga olib kelib, yakuniy moliyaviy hisobot natijalarini buzishi mumkin. Shu sababli mazkur muammoni alohida operatsiyalar darajasida emas, balki yagona zanjir doirasida boshqarish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



1-rasm. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni hisobda aks ettirish zanjiri [1]

Birinci kritik nuqta — tasniflash. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobot shakllarida tarkiban qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar, mustaqil bo'lmagan jamiyatlarga investitsiyalar, xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarga investitsiyalar, berilgan qarzar, depozit qo'yilmalar hamda boshqa uzoq muddatli investitsiyalar ko'rinishida ajratib ko'rsatiladi [1]. Amaliyotda uchraydigan muammo shundan iboratki, ayrim korxonalarda tasnif “instrument nomi”ga asoslanadi, holbuki tasniflashning iqtisodiy mazmuni investitsiyani ushlab turish muddati va maqsadiga bog'lanishi lozim. Aks holda, bir xil investitsiya turli korxonalarda joriy yoki uzoq muddatli sifatida turlicha aks ettirilib, balans likvidligi va moliyaviy koeffitsientlarning sun'iy o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi kritik nuqta — baholash. Qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha bozor narxlarining tez-tez o'zgarishi “qarz uzilgungacha ushlab turiladigan” instrumentlarga nisbatan sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi, “sotishga mo'ljallangan” instrumentlar esa bozor narxlariga kuchli bog'liqligi sababli ularni sof bozor qiymatida aks ettirish obyektivlikni ta'minlashi ta'kidlanadi [1]. Mazkur yondashuv buxgalteriya siyosati uchun aniq xulosani shakllantiradi: baholash bazasini barcha investitsiyalarga bir xil qo'llash maqsadga muvofiq emas, balki investitsiya maqsadiga ko'ra segmentlash talab etiladi. Aks holda, bozor tebranishlari real risklardan ko'ra, metodik tanlov natijasi sifatida moliyaviy natijalarning o'zgaruvchanligiga olib kelishi mumkin.

Uchinchik kritik nuqta — qayta baholash. Amaliyotda uzoq muddatli investitsiyalarni qayta baholashda “xarid qiymati va bozor qiymatining eng kami” mezon asosida investitsiyalarning umumiy portfeli bo'yicha baholash yondashuvi qo'llanilayotgani kuzatiladi [1]. Biroq ushbu usulni barcha segmentlarga tatbiq etish har doim ham o'rinli emas. U, asosan, “qarz uzilgungacha ushlab turiladigan” qarzli qimmatli qog'ozlarga nisbatan qo'llanishi mumkin. “Sotishga mo'ljallangan” qarz qimmatli qog'ozlarida esa muomalada bo'lish muddati tez o'zgarishi va portfel turli muddat hamda toifadagi instrumentlardan iborat bo'lishi sababli portfel yondashuvidan foydalanish



maqsadga muvofiq emasligi asoslanadi. Shu bois bunday investitsiyalarni qayta baholashda investitsiya turlari (guruhlar) bo'yicha baholash usulini qo'llash taklif etiladi.

To'rtinchi kritik nuqta — ochiqlash (disclosure). Agar yuqoridagi uch bosqich — tasniflash, baholash va qayta baholash bo'yicha qabul qilingan qarorlar moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun yetarlicha ochib berilmasa, uzoq muddatli investitsiyalar bandi taqqoslanuvchan axborotni ta'minlamaydi. Shu bois izohlarda kamida quyidagi ma'lumotlar aniq bayon etilishi zarur: investitsiyalar tarkibi (qaysi turlarda), tasniflash mezonlari (muddati va maqsadi), baholash bazalari (qaysi segmentda qaysi baza qo'llanilgani) hamda qayta baholash usuli (portfel yoki guruhlar bo'yicha). Bu yerda investitsiyalar tarkibini ochib berishning o'zi ham muhim bo'lib, moliyaviy hisobot shakllari "uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar"ni aynan turkumlar kesimida ko'rsatishni nazarda tutadi [1].

Yuqoridagi tahlil natijalarini amaliy qarorlarga aylantirish maqsadida 1-jadvalda takomillashtirish yo'nalishlari "muammo → hisobiy oqibat → yechim" mantiqida jamlandi. Ushbu yo'nalishlar izchil ravishda zanjir bo'yicha tatbiq etilganda, korxonalarda uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobining metodik barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

1-jadval. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobi bo'yicha takomillashtirish yo'nalishlari [1]

Bo'g'in	Asosiy muammo	Hisobiy oqibat	Takomillashtirish yechimi (hisob siyosati darajasida)
Tasniflash	Joriy/uzoq muddatli ajratish amaliyoti bir xil emas	Likvidlik va koeffitsientlar buziladi, taqqoslanuvchanlik pasayadi	Ushlab turish muddati/maqsadi bo'yicha qat'iy tasnif qoidasi; investitsiyalar tarkibini turkumlar bo'yicha yuritish
Baholash	Baholash bazasi maqsaddan ajratilgan (hammasiga bir xil baza)	Moliyaviy natija "sun'iy" tebranadi; risk signali buziladi	"Ushlab turiladigan" segmentda bozor tebranishi kam ta'sirli; "sotiladigan" segmentda sof bozor qiymati obyektivroq
Qayta baholash	Portfel usuli noo'rin segmentga qo'llanadi	Realizatsiya qilinmagan farqlar noto'g'ri agregatsiya qilinadi	Portfel usuli faqat ushlab turiladigan qarzli instrumentlarda; sotishga mo'ljallanganda guruhlar bo'yicha baholash
Ochiqlash	Tasnif-baholash-qayta baholash qarorlari izohlarda yetarli ochilmaydi	Foydalanuvchi uchun "nima sababdan shunday" tushunarsiz qoladi	Minimal disclosure: turkum (tarkib) + tasnif mezon + baholash bazasi + qayta baholash usuli

Yuqorida ko'rib chiqilgan metodik muammolarning (tasniflash, baholash, qayta baholash va ochiqlash) amaliy ahamiyatga egaligi uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar ko'rsatkichlarining umumiy dinamikasi orqali ham tasdiqlanadi. Jumladan, 2010–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston bo'yicha mazkur ko'rsatkich barqaror o'sish tendensiyasida shakllangan bo'lib, u 2016-yilda 104,1 darajadan 2024-yilda 131,3 darajagacha oshgan. Bu holat korxonalarda uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar ulushining kengayib borayotganini hamda ular bilan bog'liq hisob operatsiyalari hajmi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, 2024-yil kesimida hududlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligi kuzatiladi (masalan, Namangan viloyatida — 261,2, Sirdaryo viloyatida — 67,08). Mazkur farqlarni faqat real iqtisodiy omillar bilan izohlash doimo yetarli bo'lmaydi, chunki investitsiyalarni joriy yoki uzoq muddatli aktiv sifatida tasniflash mezonlari, baholash bazalari hamda qayta baholash usullarining turlicha qo'llanishi ko'rsatkichlarning nisbatan "kattaroq" yoki "kichikroq" ko'rinishiga olib kelishi mumkin.

Demak, uzoq muddatli investitsiyalar hajmi va ularga oid ko'rsatkichlar o'sib borayotgan sharoitda moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlash maqsadida 1-jadvalda taklif etilgan zanjir bo'yicha standartlashtirish yondashuvi — tasniflash algoritmi → baholash modeli → qayta baholash qoidalari → minimal disclosure paketi — amaliy zarurat sifatida mustahkamlanadi [2].

2-jadval. Uzoq muddatli investitsiyalar ko'rsatkichi: hududlar kesimida (2016–2024) [2].

Hudud	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	104.1	119.4	129.9	138.1	95.6	102.9	100.2	123.4	131.3
Andijon viloyati	102.4	114.3	113.7	129	110.6	106	116.5	121.2	139.4
Buxoro viloyati	120.8	154.7	60.6	95.9	104.7	147.4	94.2	132.2	153.5
Farg'ona viloyati	97.1	98.6	145.9	132	113.5	105.7	112.4	120.1	101
Jizzax viloyati	102.7	108.2	158.1	194.9	147.4	72.4	104.6	134.1	144.4



Namangan viloyati	108.2	110.2	178.1	131.1	88	100.5	104.2	121.3	261.2
Navoiy viloyati	144.1	107.4	188	144.3	77.1	86	109.4	136.3	115.800301
Qashqadaryo viloyati	108.9	129.7	112.4	131.2	76.5	77.8	80	117.758332	156.2
Samarqand viloyati	103.4	105.7	131.4	134.5	128.8	98.7	111.6	127.8	105.5
Sirdaryo viloyati	107.9	115.4	131	186	111.2	107.7	135.1	117.7	67.082789
Surxondaryo viloyati	107.6	148.4	164.2	144	77.4	109.7	87.5	148.3	86.161911
Toshkent shahri	119.5	121.4	138.2	145.8	108.6	105	87.2	115.8	119.051399
Toshkent viloyati	87	118.4	139.9	158.5	92.2	120.3	110.7	121.1	139.2
Xorazm viloyati	97.8	128.5	111.7	150.7	92.7	139.3	94.2	121	120.8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	56.2	60.4	169.9	100.3	69.9	105.1	114.9	116.6	146.3

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston korxonalarida uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobi bo'yicha muammolar alohida, yakka xatolik sifatida emas, balki o'zaro bog'liq va bir-birini keltirib chiqaruvchi metodik zanjir ko'rinishida namoyon bo'ladi. Xususan, investitsiya dastlab noto'g'ri tasniflanganda (joriy yoki uzoq muddatli aktiv sifatida ajratish mezonlari aniq belgilanmaganda), keyingi baholash bazalari — xarid qiymati, amortizatsiyalangan qiymat yoki bozor qiymati — izchil va asosli qo'llanilmaydi. Buning natijasida qayta baholash bo'yicha qarorlar (portfel yondashuvi yoki guruhlar kesimida baholash, "xarid qiymati va bozor qiymatining eng kami" mezonini tanlash) ham har doim ham investitsiyaning iqtisodiy mazmuniga mos kelmaydi. Oxir-oqibat, moliyaviy hisobot izohlarida ochiqlash (disclosure) yetarli darajada ta'minlanmagani sababli foydalanuvchilar investitsiyalar bo'yicha qabul qilingan metodik qarorlarning asoslarini va ularning moliyaviy natijalarga ta'sirini to'liq anglay olmaydi. Natijada balans likvidligi hamda asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarning talqini murakkablashadi, hisobotlarning taqqoslanuvchanligi pasayadi va investorlar hamda kreditorlar uchun taqdim etiladigan axborot sifati susayadi.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, korxona hisob siyosatida uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni ushlab turish muddati va investitsiya maqsadiga asoslangan qat'iy tasniflash qoidalarini, shuningdek, qayta tasniflash shartlarini aniq belgilash zarur. Ikkinchidan, investitsiyalarni "ushlab turiladigan" va "sotishga mo'ljallangan" segmentlarga ajratgan holda, baholashni har bir segmentning iqtisodiy mazmuniga mos ravishda yuritish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, qayta baholash jarayonida portfel yondashuvini faqat mos holatlarda qo'llash, sotishga mo'ljallangan instrumentlar bo'yicha esa guruhlar kesimida baholash amaliyotini joriy etish tavsiya etiladi. To'rtinchidan va eng muhimi, moliyaviy hisobot izohlarida minimal disclosure paketini majburiy tarzda ta'minlash lozim. Ushbu paket tasniflash mezonlari, investitsiyalar tarkibi, baholash bazalari, qayta baholash usullari hamda ularning moliyaviy natija va kapitalga ta'siri to'g'risidagi axborotni qamrab olishi kerak.

Mazkur choralar kompleks va izchil tarzda tatbiq etilganda, uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobining metodik barqarorligi ta'minlanadi, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi oshadi hamda korxonalarning moliyaviy holatini baholash bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun ishonchli va taqqoslanuvchan axborot bazasi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ismanov I.N. Uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish: monografiya (ilmiy nashr). — Toshkent: "Classik" nashriyoti, 2021. — 152 bet. ISBN 978-9943-7698-0-9.
2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vaziri. 2024-yil 8-oktabrdagi 181-son buyrug'i "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" (ro'yxat raqami: 3567; ro'yxatdan o'tgan sana: 2024-yil 4-noyabr; kuchga kirgan sana: 2025-yil 1-yanvar). — Elektron manba.
3. Twin A. Long-Term Investments on a Company's Balance Sheet. — Investopedia. — Elektron manba.
4. Uzoq muddatli aktivlar. — O'quv-uslubiy material. — Elektron manba.
5. Khasanboeva B. Legislative regulations for accounting of financial investments in the Republic of Uzbekistan // Решение социальных проблем в управлении и экономике. — 2025. — Vol. 4, No. 7. — P. 19–24. — Elektron manba.
6. Mahmudov S.K. Accounting of financial instruments in the Republic of Uzbekistan based on IFRS: essence and problems // International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences. — 2022. — Vol. 16, Issue 6 (June). — P. 117–128. ISSN 2349-7793. — Elektron manba.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>